

## TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH, INTEGRATSIYA TA'RIFLARI

**Aslonova Matluba Axtamovna**

Navoiy viloyati Konimex tumani 16-umumiy o`rta ta`lim maktabi  
biologiya fani o`qituvchisi

**Taniyeva Malohat Fayzullayevna**

Navoiy viloyati Konimex tumani 16-umumiy o`rta ta`lim maktabi  
tarix fani o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7376411>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish, integratsiya ta'riflari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, o`zgarish, yangilik, integratsiya ta'riflari.

**Innovatsiya** – (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san'at, mahorat va “logos” – fan so'zlaridan olinib, innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o`qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- yangi pedagogik texnologiya bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish (PISA, TIMSS);
- ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borish;

- bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo‘lishi;

- dars jarayonida harakatli o‘yinlardan unumli foydalana bilishi;

- imkoni bo‘lsa darsni internet tarmog‘iga bog‘lab o‘ta bilishi;

- o‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

- O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi.

- Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi. “Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.”– degan edi mashhur pedagog A. Nikolskaya. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o‘qituvchi va o‘quvchi mushtarakligiga erishish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg‘unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Darslarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanishga doir ushbu maqola bilan, darslarni samarali tashkil etish uchun foydalaniladagan metod va o‘yinlardan har bir fan o‘qituvchisi dars jarayonida foydalanish imkoniga ega.

O‘qituvchi izlanuvchan, ijodkor, fanini puxta biladigan va shu fani orqali o‘quvchilarga bugungi kun davr talabi asosida innovatsion g‘oyalarga tayanib bilim bersa, bu o‘sha o‘qituvchining o‘quvchilar hamda ota-onalarning e’tiborini qozonishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o‘quvchilarga ko‘plab ma’lumotlarni singdirish orqali ularni bilim olishga, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini ham orttirish mumkin. Buning uchun albatta o‘quvchilarga fanga oid zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida ko‘proq

tushunchalarni uygʻunlashtirish, singdirish lozim. Oʻqituvchi qanchalik mahoratli boʻlsa, kelajakda oʻquvchilarining yutuqlaridan shunchalik koʻp faxrlanib yuradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiya – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda oʻquvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir.

### **Integratsiya taʼriflari**

**"Integratsiya"**—bir nechta oʻquv predmeti materiallarini, metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy boʻysundirish asosida tuzish usuli.

**N.S.Svetlovskaya.**

**"Integratsiya"**-fanlararo aloqa, oʻrnatishning yangi sifati darajasiga koʻtaruvchi, bir butun bilimlar "monoliti"ni yaratishga imkon beruvchi vosita.

**L.N.Bakareva.**

**"Integratsiya"** predmetlararo bogʻlanishning eng yuqori darajasi, u metodologik prinsiplar asosida muammoni kompleks oʻrganish yoʻli.

**LT.Tarasov.**

**"Ingegratsiya"**-atrof-muhitni, yahlit tasavvurni, predmetlardagi bilimlarni yaqinlashtiruvchi umumiy platformani topuvchi vosita.

**Yu. M.Kolyagin.**

Integrallash qomusiy ajdodlarimiz Zardoʻshiy, Aristotel, Muso al-Xorazmiy, al-Farobiy, Axmad al-Fargʻoniy, Abu Rayxon Beruniy, Ulugʻbek kabi oʻnlab maʼnaviy yuksalish davrini daholarining gʻoyalarida yuzaga kelgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A muallifligidagi Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. -T.: Oʻqituvchi, 2003. -189 b.
2. Internet materiallari.hunar. uz.Hunarmand uyshmasi